

## O'.HOSHIMOVNING "IKKI ESHIK ORASI" VA U.FOLKNERNING "SHOVQIN VA G'AZAB" ASARLARINING JANRI VA O'ZIGA XOSLIGI

*Jumaniyazova Nargiza Abdug'ofurovna  
Farg'ona Davlat universiteti, Sirtqi bo'lim  
Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** maqolada O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" hamda U.Folknerning "Shovqin va g'azab" asarlarining janri, o'ziga xosligi haqida fikr yuritiladi. Ikki asarning ham polifonik ekanligi, ikki asarda ham urushning insoniyatga bo'lgan salbiy ta'siri, urushning insonlar hayotiga nechog'lik yomon ta'sir ko'rsatishi haqida so'z boradi.

Ikki asarning yozilishiga turtki bo'lgan sabablar, ularning mohiyatan, janri tomonidan o'xshashligi, voqea-hodisalarning talqin qilinishi, urush va maishiy hayot haqida hikoya qilinishi, garchi ikkisi turli makon va turli zamonda yaratilgan bo'lsada, insoniyat, insonlar, maishiy hayot mohiyatan bi xilda davom etayotgandek.

Ikkisida ham kattalar hayotiga bola shuuri bilan yondoshish, bolalarcha tasavvur bilan qarash, voqea-hodisalarning qahramonlar tilidan hikoya qilinishi kabi jihatlari birlashtirib turadi.

**Kalit so'zlar:** polifonik, obraz, personaj, monolog, konflikt.

## GENRE AND ORIGINALITY OF O'.HOSHIMOV'S "BETWEEN TWO DOORS" AND U.FOLKNER'S "THE SOUND AND THE FURY"

Jumaniyazova Nargiza Abdugafurovna,  
Teacher of the "Department of Exact and Natural Sciences,  
Fergana State University Correspondence Department

**Abstract:** The article contains reflections on the genre, the originality of the works of O'.Hashimov's "Between Two Doors" and W. Faulkner's "The Sound and The Fury". Both works are polyphonic, both works tell about the negative impact of war on humanity, about how badly war affects people's lives.

The reasons that prompted the writing of the two works are their similarity in essence, in genre, in the interpretation of events, in the narrative of war and home life, although these two works were created in different spaces and at different times, humanity, people, home life, it seems, essentially continues in two versions.

Both combine such aspects of adult life as an approach with a child's consciousness, a look with a child's imagination, and the narration of events from the language of heroes.

**Key words:** polyphonic, image, person, monologue, conflict.

O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" hamda U.Folknerning "Shovqin va g'azab" asarlari turli zamon, turli makon, turli janrlarda yozilganiga qaramasdan ularni ba'zi jihatlar birlashtirib turadi.

Bu asarlarda asar qahramonlari dunyoqarashi orqali jamiyat hayoti, undagi muammolar, o'tmish va bugunni taqqoslanadi, asarlar mualliflari o'z fikr va o'xayollarini qahramonlar tomonidan ifoda etadilar.

Polifonik uslubda yozilgan bu ikki asarda voqealar asar qahramonlari tomonidan hikoya qilinishi kitobxonga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi.

Obrazlar tomonidan hikoya qilish uslubida muallif nutqidan qahramon nutqiga tez va sezilarsiz o'tiladi. Hikoya qiluvchilarning ko'pligi, ya'ni polifonik uslubda hikoya qilish jarayonida muallifning o'zini chetga olishi kitobxonda ta'sirchanlikni oshiradi. Hikoyani o'qish jarayonida o'quvchi ma'lum voqealar, insonlarga bo'lgan munosabatni muallif tomonidan emas, balki o'sha voqealarni aynan boshidan kechirayotgan qahramon tomonidan hikoya qilinaётгани uchun go'yoki voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rayotgandek tassavvur hosil bo'ladi. Bu hol adibga personajlarning ichki olamini chuqur ochib berishiga imkon yaratadi. Bu holat kitobxonni aynan muallif tomonidan berilgan mulohazani olmaganligi uchun beixtiyor chuqur o'yg'a toladi, voqealar rivojidan haqiqatni qidiradi.

Ikki asarning o'xshashlik tomonlaridan biri – ikkala asarda ham kattalar olami bolalar nigohida ochib beriladi, qahramonlar obrazi orqali voqea-hodisalarga munosabat bildiriladi. Dunyo adabiyoti namoyondalari B.Gyugo, L.Andreev, Ch.Aytmatov asarlarida qo'llanilgani kabi ikkala adibning ham deyarli barcha asarlarida kattalar olamiga o'zicha qarshilik ko'rsatgan beg'ubor bolaning beg'ubor vijdoni, ko'ngli aks ettiriladi.

"Ikki eshik orasi" asarida bolakay Muzaffar kattalarni kuzatadi – mudom tamaki hidi anqib turuvchi dadasi, koptokdek dumaloq, ichidan "g'ij-g'ij" ovoz chiquvchi ammasi. U.Folkner asarida ham ruhiy etishmovchilikdan azob chekuvchi Benji tomonidan kattalarga nisbatan tasvirlar beriladi. U ruhiy nosog'om bo'lsada, o'ziga kerak bo'lgan narsalar uchun aqli etadi.

U.Folkner umri davomida o'n to'qqizta roman, etmishta hikoya va qissalardan iborat badiiy asotirlarni qoldirgan bo'lib, u asosan barcha asarlarida xayoliy, to'qima obrazlar orqali, to'qima voqealarni hikoya qiladi. Ularning aksariyati Yoknapatofiyada sodir bo'ladi, asar qahramonlari yoknapatofiyaliklar bo'ladi.

Uni keyinroq muvaffaqiyatga erishgan, dunyoga tanitgan asarlaridan biri "Shovqin va g'azab" asarida bir paytning o'zida bir nechta qahramon, bir nechta nuqtai nazardan, ya'ni to'rt qismdan iborat romanning uchta qismi bitta qahramon tomonidan, oxirgi to'rtinchi qismi xizmatkor Dilsa tomonidan hikoya qilinadi.

U.Folkner bu asarini yozish jarayoniga shunday tavsif beradi: "Menda bir oilaning tanazzulini sal aqli zaif bolaning tasavvuri orqali aks ettirish fikri tug'ildi. Uning olamga,

atrofda bo'layotgan voqealarga munosabati va olamni qabul qilish orqali o'ttiz yillik davrni tasvirlamoqchi bo'ldim. Keyin ayni shu voqealarni boshqa, yoshi kattaroq akasining nuqtai nazari bilan sharhlash, keyin uchinchisining nigohi bilan tasvirlashga urindim. Bu voqeani bir paytda bir nechta qahramon tasavvuri orqali ochib berishga kirishdim..."

Aslini olib qaraganda bu asarda o'quvchini o'ziga tortadigan hech narsa yo'qdek. Asarda tasvirlangan voqealar Amerika janubida yuz beradi. Zodagonlarning ko'zga ko'ringan vakili hisoblangan Kompsonlar oilasi yangi hayotga moslasha olmay ham ma'nau, ham jismonan tanazzulga yuz tutadi. Bu voqea hech qaysi voqea orqali tasvirlanmaidi, buni asar qahramonlari (oilaning uch a'zosi Benjamin, Kventin, Jeysonlarning) ichki rihiy kechinmalari, ularning his-tuyg'ulari, tasavvurlari orqali ochib beriladi va jahon adabiyotida birinchi marta asarda telba, aqli zaif odamning ichki monologi – ong osti shuuri asos qilib olinadi. Asar qahramoni aqli zaif Benjamin – Benji 1928 yil 7 aprel voqealrini 1898 yildagi voqealar bilan chalkashtirib yuboradi, asarda hech qanday xronika yo'q, o'ttiz yil oldingi voqealar unga ayni damda yuz berayotganday tuyuladi. Benjining tasavvurlari orqali bir oilaning 30 yillik hayoti va tanazzuli aks ettiriladi.

Adib asarlarida voqelikka nisbatan ichki iztiroblarga urg'u beriladi. Asar qahramonlarining yuzida tirikchilik va umr g'uborlari qorishig'ida ko'rinmay yotgan dardchil, muhtar qalbni, isyonini tashqariga chiqara olmayotgan yurakni ko'ramiz.

Fokner bilan bo'lgan suhbat jarayonida yozishga mavzu qolmadi degan savolga u shunday degan edi: "Naqadar dahshat! Aslo! Xudo suygan yozuvchi boshqa birov ilg'ashga qodir bo'lmagan qusurni, albatta, ko'ra oladi. Bundan iztirob chekadi, dunyoga sig'maydi va o'z-o'zidan Tangri ko'ngliga solgan dardlarni qog'ozga tushiradi. Mavzu topolmagan yozuvchiga achinaman. Bu chidab bo'lmas azob. Yozuvchi mavzu topib yozishi va uni qog'ozga tushirishi uchun boshqalar ish bilan g'oyat band bo'lishi kerak ya'ni unga yolg'izlik kifoya."

"Shovqin va g'azab" asari haqida shunday deydi: "Bir surat tufayli roman dunyo yuzini ko'rdi. Unda nok daraxti tagida, quti ustida o'tirgan mayus qizaloq tasvirlangan edi. U buvisiyu akalarining ko'mish marosimini kuzatib turardi. Bu fojeani anglab-anlamay odamlardan ko'z uzmay o'tirgan qizaloq shafqatsiz qismatning qahru g'azabi qarshisida yolg'iz qoldandi. Surat shunchalar yuragimni timdaladiki, men o'sha kuni hikoya yozaman, deb o'ylagandim, biroq bu romanga aylandi. Surat odamlar olamida yolg'iz qolgan etim qizaloqqa mehr-muhabbat, rahm-shafqat, baxt-saodat nasib etishi gumonligidan so'zlardi. O'shanda qanchalar ta'sirlanganimni so'z bilan tushuntirib berolmayman. Surat qarshisida beixtiyor yig'lab yuborganman. Qo'linga qalam olib, yozishni boshlaganimdayoq bu kutganimdan ortiqroq asar bo'lishini angladim. Uch yil uning g'oyasini shakllantirdim. Yozgunimga qadar necha marta qahramonim bilan birga ko'z yosh to'kkanimni tasavvur ham qilolmaysiz. Bu romanni yozish jarayonidagi

qiynoqlarim yodimga tushsa uni bag‘rimga bosgim keladi. Shu tariqa o‘sha etim qizning boshini silayman va hozir ham ko‘zim yoshlanadi. Roman yozib tugatilgandan o‘n besh yil o‘tgach kitob hoida chop etilganini ham e‘tirof etishim kerak. Kitobxonlardan u haqda ko‘p bora iliq so‘zlarni eshitganman, asar o‘zimdayam eng ajoyibu g‘aroyib tuyg‘ularni uyg‘otadi. Shuning uchun u menga muvaffaqiyat keltirdi, deb o‘y layman. Qaniydi, yana shunday asar yozolsam, lekin buning uchun yana o‘shanday hayrat kerak. Meni yig‘latishga qodir bo‘lgan surat izlayapman. Ammo...

Benjini o‘zim yaratganman. Ba‘zan shu qahramonimga o‘xshaganlarni uchratsam, yuragim orqaga tortadi va insoniyatga rahmim keladi. U hayotni faqat eyish-ichish, o‘z xizmatini oxirigacha ado etishdan iborat, deb o‘y laydigan omi bir go‘rkov. Benji ezgulik va yovuzlik orasidagi farqni bilmaydi, chunki unda bunday tushunchaning o‘zi yo‘q.

Benji – xudbin odam. U hayvon edi. Tog‘ri, go‘rkov Benji muhabbatni tan olardi, hayotiga etishmayotgani ham shu tuyg‘u ekanligini bilardi, biroq oliy tuyg‘uni his qilish baxtidan mahrum edi sho‘rlik. Muhabbat – pokiza, u esa muhabbat uchun g‘oyat chirkin edi. Qalbing kir bo‘lsa, unga bu tuyg‘u hech qachon tashrif buyurmaydi. Bunday qahramonga yana qanday taqdirni ravo ko‘rishim mumkin edi, ayting! Iflosligu halollik chegarasini bilmaydigan go‘rkov eng pokiza tuyg‘uga musharraf bo‘lganida kitobxonlar meni toshbo‘ron qilardi-ku!

E‘tiqod! E‘tiqodsiz odamda hech narsa bo‘lmaydi. Undan ezgulik kutish ham ahmoqlik. E‘tiqodsiz odam hammaga kulfat keltiradi, nafaqat atrofdagilar, balki butun bir millat, mamlakat, hatto insoniyat taqdirini ham xavfga qo‘yadi.”

Aynan asarda keltirilgan tasvir o‘sha surat timsolidan olingandek, “...orqasi kir bo‘lib ketgan ishtonchali qizaloq olmurut daraxtiga chiqib olib, derazadan dafnga tayyorgarlik qanday ketayotganini kuzatarkan, pastda turgan akalariga nimalar bo‘layotganini aytib turardi.” (Keddi Kompson tasviri)

Xuddi shunga o‘xshash so‘zlarni O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi” asarining yaratilish jarayonida uchratish mumkin. O‘.Hoshimov: “...asari o‘zimga yoqmad. Unda nimadir yetishmayotganini his qilib turardim. Keyin bilsam, urush faqat janggohda yurgan..., front chizig‘idan uzoqda mehnat qilyotgan odamlarni o‘ldirish bilan ham cheklanmadi, urush o‘zidan keyin tug‘ilgan begunoh odamlarning umriga ham zavol bo‘ldi, degan maqsadni ochish uchun katta mashtabli asar kerak ekan”, degan edi.

Ikki asarni solishtirar ekanmiz, aynan mening fikrimcha Benji va Umar zakunchi obrazlarini bir xil qiyofada ko‘rish mumkin.

Benji aqlan zaif odam timsolida e‘tiqodsiz, yaxshilik bilan yomonlikning farqiga bormaydigan, xudbin tarzda aks ettirilsa, Umar zakunchi aqli joyida bo‘lgan odam sifatida uning ongi zaharlanganligi, o‘zidan boshqa hech kimni ko‘rmasligi, hamma unga bo‘sunishga majbur ekanligini da‘vo qilishini tasvirlanadi.

Polifonik uslubda yozilgan bu ikki asarning birisi to‘rt qismdan, birisi to‘qqiz qismdan iborat bo‘lib, har ikkovida ham urush tasvirlari tilga olinib, uning jamiyatga,

xalqqa ko‘rsatgan ta’sirini, keltirgan azob-uqubatlarini tasvirlash orqali xalq hayoti aks ettiriladi.

Ikkisida ham muallif o‘zini chetga olib, voqea-hodisalar qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. Ikkisida ham insonlarning ruhiy kechinmalari, rihiy, xarakterlararo hamda muhitga nisbatan konflikt ko‘rinib turadi.

Ikki asarda ham qahramonlarning ichki kechinmalari o‘z tillaridan bayon qilinadi, voqealar aslida qahramonlarning shuurida aks etadi. Ularning kechinmalari orqali biz yuz bergan voqea-hodisalar bilan tanishamiz.

O‘tkir Hoshimov bilan Uilyam Folkner asarlarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, XX asr adabiyotida polifonik tarzda hikoya qilish uslubining yangi ko‘rinishlari sifatida modernistik an’analar O‘.Hoshimov ijodida o‘z aksini topdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Ulugbekov. Theory of literary criticism. Tashkent, 2017
2. H. Umirov. Theory of Literature, Samarkand, 2001.
3. E.Khudoyberdiev. Introduction to literary studies. Tashkent, 2007.
4. W. Folkner. The Sound and the Fury, 1929.
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)